

Doktoranturaga 2020 yil uchun qabul boshlandi

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Navoiy tayanch doktoranturaga 2020 yil uchun quyidagi ilmiy yo'nalishlar bo'yicha qabul e'lon qilinadi:

- 02.00.13 – Noorganik moddalar va ular asosidagi materiallar texnologiyasi – 1 o'rin;
- 04.00.01 – Umumiy va mintaqaviy geologiya – 1 o'rin;
- 04.00.10 – Geotexnologiya (ochiq, yer osti va qurilish) – 1 o'rin;
- 05.02.01 – Mashinasozlikda materialshunoslik. Quymachilik. Qora, rangli va noyob metallar metallurgiyasi – 1 o'rin;
- 05.02.02 – Mexanizmlar va mashinalar nazariyasi. Mashinashunoslik va mashina detallari – 1 o'rin.

Tayanch doktoranturaga kiruvchi nomzodlar quyidagi talablarga javob berishi lozim:

- oliy ta'lim muassasasi magistraturasi diplomi magistr darajasi joriy etilguncha olingan oliy ma'lumot to'g'risidagi diplomga hamda muayyan ilmiy natijalarga, shu jumladan dissertatsiya tadqiqoti asosini tashkil qilishi mumkin bo'lgan, ilmiy jurnallar va nashrlarda chop etilgan kamida bitta ilmiy maqola va ilmiy-amaliy konferentsiyalarda tegishli ilmiy yo'nalishlar bo'yicha ilmiy ishlar to'plamlariga kiritilgan ikkita ma'ruza-tezisga ega bo'lish;
- xorijiy tilni magistratura bitiruvchisining tegishli darajasida bilish;
- zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan, shu jumladan Internetdan foydalana olish.

Tayanch doktoranturaga kiruvchilar quyidagi fanlardan imtixon topshiradilar:

- mutaxassislik;
- chet tili (ta'limning oldingi darajalarida o'rganilgan xorijiy til).

Tayanch doktoranturada o'qishga talabgorlar qabul komissiyasiga phd.mininnovation.uz onlayn platformasi orqali kerakli ma'lumotlarni to'ldirib, quyidagi hujjatlarni taqdim etadilar:

- pasport nusxasi;
- qisqacha biografik ma'lumotnoma;
- mehnat daftarchasining belgilangan tartibda tasdiqlangan nusxasi (ishlayotgan talabgorlar uchun);
- oliy ta'lim muassasasi magistraturasi diplomi nusxasi;
- nashr etilgan ilmiy ishlar ro'yxati, shuningdek ularning nusxalari.

Hujjatlar 2019 yilning 15 sentyabrdan 15 oktyabrgacha qabul qilinadi.

Tayanch doktorantura kirish imtihonlari va doktorantura uchun suhbat 2019 yilning 1-25 noyabr davrida bo'lib o'tadi.

Ma'lumotlar uchun tel: (79) 223-42-29.